



Nigora ISRAILOVA,
Andijon davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti
E-Mail: israilova.n@gmail.com

NamDU dotsenti D.Sarimsakova taqrizi asosida

NEMIS YOSHLARI NUTQIDA TILNING ETNOLEKTAL SHAKLLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada yoshlar nutqida nemis tilining etnolektal shakllari chuqur tahlil qilinib, ushbu til hodisasi identifikatsiya va ijtimoiy muloqot jarayonlari bilan qanday bog'liq ekani o'rganilgan. Tadqiqotda etnolekt tushunchasi, uning turli avlod migrant yoshlar tomonidan qanday shakllarda qo'llanilishi va bu jarayonning ijtimoiy hamda madaniy jihatlar atroflicha muhokama qilingan. Shuningdek, maqolada etnolektal shakllarning ijtimoiy chegaralarni belgilash yoki aksincha, yangi muloqot imkoniyatlarini yaratish vositasi sifatida qanday ishlatilishi muhokama qilingan. Kelgusida etnolektlarning rivojlanishi, ularning yoshlar identifikatsiyasiga ta'siri va migrant avlodlar o'rtasida qanday o'zgarishlarga uchrayotganini yanada chuqurroq tadqiq qilish zarurligini ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Etnolekt, migratsiya, ko'p tillilik, yoshlar nutqi, Türkendutsch, lingvistik o'zgarishlar, identifikatsiya, madaniy xilma-xillik, Kiezdeutsch, sotsiolekt.

ЭТНОЛЕКТАЛЬНЫЕ ФОРМЫ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА В РЕЧИ НЕМЕЦКОЙ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье глубоко анализируются этнолектные формы немецкого языка в речи молодежи, исследуется, как это языковое явление связано с процессами идентификации и социального общения. В исследовании подробно рассматриваются понятие этнолекта, формы его использования среди различных поколений мигрантской молодежи, а также социальные и культурные аспекты этого процесса. Кроме того, в статье обсуждается, как этнолектные формы используются либо для определения социальных границ, либо, наоборот, как средство создания новых возможностей общения. Подчеркивается необходимость дальнейшего углубленного изучения развития этнолектов, их влияния на идентификацию молодежи и изменений, происходящих среди поколений мигрантов.

Ключевые слова: Этнолект, миграция, многоязычие, речь молодежи, Türkendutsch, лингвистические изменения, идентификация, культурное разнообразие, Kiezdeutsch, социолект.

ETHNIC FORMS OF GERMAN IN YOUNG PEOPLE'S SPEECH

Annotation

This article provides an in-depth analysis of the ethnolinguistic forms of German in adolescent speech, exploring how this linguistic phenomenon is related to processes of identification and social interaction. It examines the concept of ethnolect, the ways in which it is used by different generations of migrant youth, and the social and cultural aspects of this process. It also discusses how ethnolectual forms are used either to define social boundaries or, conversely, as a means of creating new opportunities for communication. The need for further in-depth research into the development of ethnolects, their impact on youth identity and the changes taking place among migrant generations is emphasised.

Key words: Ethnolect, migration, multilingualism, youth language, Turkish language, linguistic change, identification, cultural diversity, neighbourhood language, sociolect.

Kirish. So'nggi o'n yilliklarda sodir bo'lgan migratsion jarayonlar va demografik o'zgarishlar Germaniyaning yirik shaharlarida ko'p tillilik va ko'p madaniyatlilikning keng tarqalishi natijasida nemis tilining yangi nutq va interaktsiya uslublarining shakllanishiga olib keldi. Germaniyada lingvistik-kommunikativ ko'p tillilik til ozchiligi va til ko'pchiligining o'zaro murakkab ta'siri bilan tavsiflanadi. Shu jarayonda aynan yoshlar guruhi ushbu ko'p tillilik naqshlari va til aralashish jarayonlarining turli shakllarini ommalashtirish va rivojlantirishda yetakchi rol o'ynaydi. Shunday lingvistik o'zgarishlarning rivojlanishida, ayniqsa, "Türkenslang" deb ataluvchi nutq uslubining shakllanishida, asosan, turk millatiga mansub yoshlar hamda umuman, nemis bo'lmagan kelib chiqishga ega bo'lgan

yoshlar muhim omil sifatida ishtirok etadi. Ushbu yoshlarning aksariyati Germaniyada voyaga yetgan bo'lib, nemis tili va madaniyatiga o'z ajdodlarining ona tilidan va madaniyatidan ko'ra ko'proq yaqindirlar. Ular o'z ona tili va ota-onalarining to'liq shakllanmagan nemis tilidan iborat bo'lgan lingvistik muhitda ulg'ayadi. Shu sababli, ushbu yoshlarning o'z nemis tilidagi kundalik nutqlarini ona tillaridan kirib kelgan elementlar bilan boyitishi kutilgan holatdir. Biroq, faqatgina ikki tildan iborat lingvistik aralashma bilan cheklanib qolmay, ko'plab yoshlar o'ziga xos etnolektal ko'rinishlardan foydalanadi. Ushbu hodisa tarkibida nemis tilining grammatik, leksik hamda fonetik-prosodik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, bu o'z navbatida ushbu til shaklini standart nemis tilidan farqlantiradi va

so'zlashuvchilarni nemis bo'lmagan shaxslar sifatida ajratib ko'rsatadi. Ushbu nisbatan yangi lingvistik shakl turlicha nomlar bilan yuritiladi: "Türkendeutsch", "Türkenslang" kabi atamalardan tashqari, "Kanak Sprak", "Ghettosprache", "Mischsprache" va "Lan-Sprache", „Kiezdeutsch“ kabi atamalar ham ishlatiladi. Shu kungacha olib borilgan empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu lingvistik shakl nafaqat migrantlar avlodlarining til xatti-harakatini aks ettiradi, balki nemis jamiyatining til amaliyotiga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ko'p tillilikning keng tarqalishi va madaniy hamda lingvistik aloqalarning kuchayishi natijasida migrantlar hamda mahalliy aholi lingvistik repertuarida o'zgarishlar yuz beradi. Ayniqsa, yoshlar orasida ko'p tarqalgan ushbu gibril, ko'p qirrali til aralashish jarayonlari ijodiy tarzda shakllantiriladi va ma'lum kommunikativ maqsadlarga yo'naltirilgan holda ishlatiladi.

Ko'plab jamiyat vakillari ushbu til o'zgarishlarini tildagi degeneratsiya (lingvistik buzilish) sifatida baholab, unga nisbatan shubha bilan qarashadi. Biroq, ushbu yangi lingvistik shakllar va ko'rinishlarning qo'llanilishi yoshlar orasida identifikatsiya jarayonlari bilan ham bog'liq bo'lib, shaxsiy va ijtimoiy o'zlikni shakllantirish va qayta tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etishi e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Axborot va til materiallarini iloji boricha tizimli hamda maqsadga yo'naltirilgan tarzda to'plash uchun tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan intervyu usuli samarali bo'ldi. Bu jarayonda tadqiqotchi oldindan belgilangan savollar va ochiq mavzulardan tashkil topgan yo'naltirilgan intervyu (Leitfadeninterview) tamoyiliga amal qilgan [1]. Ayniqsa, individual intervyularning asosiy afzalligi ularning tizimli, nazorat qilinadigan va nisbatan kam resurs talab qiladigan shaklda o'tkazilishidir. Biroq, bunday intervyular respondentlarning tabiiy nutq xatti-harakatlarini optimal darajada aks ettirmasligi mumkin, chunki suhbat jarayoni intervyu oluvchining kutilmalari ta'sirida bo'ladi va shu sababli ma'lum darajada modifikatsiyaga uchrashi ehtimoli mavjud. Bunday ta'sirlarni kamaytirish uchun bir necha kishidan iborat guruh intervyularini o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Guruh intervyusi, ayniqsa, guruh dinamikasi ta'sirida ishtirokchilarning ochiqroq muloqot qilishiga va shaxsiy mavzularni muhokama qilishiga imkon beradi. Shu bilan birga, bu usul boshqaruvning qiyinligi va ma'lumot yig'ish jarayonining murakkabligi kabi kamchiliklarga ham ega [1]. Tadqiqotda kuzatuvchi paradoksini – tilshunoslar insonlar qanday gaplashishini o'rganishga intiladi, biroq aynan kuzatilayotgan holatda ularning nutqi tabiiy bo'lmaydi – iloji boricha kamaytirish uchun suhbat va yozib olish jarayonini maksimal darajada norasmiy va majburlovsiz muhitda o'tkazish tavsiya etiladi. Buning uchun respondentlar shaxsiy hayotlari bilan bog'liq bo'lgan mavzularni muhokama qilishga jalb qilinishi lozim, bu esa ularni intervyu vaziyatidan chalg'itadi va tabiiy nutqiy xatti-harakatlarni namoyon qilish imkonini beradi [2]. Shunday qilib, tadqiqotga jalb qilingan xususiyatlar oldindan belgilangan gipoteza va kategoriyalarga emas, balki bevosita ma'lumotlar materialiga asoslangan holda tahlil qilinishi lozim. Suhbat tahlilining maqsadi muayyan ijtimoiy guruhlar yoki qatlamlarning umumiy kommunikativ xususiyatlari va suhbat amaliyotlari haqida umumlashtirilgan xulosalar chiqarish emas, balki kuzatilgan individual nutqiy faoliyat va lingvistik amaliyotlar asosida maxsus tuzilmalarni tavsiflashdan iborat.

Deppermannga ko'ra, "suhbat tahlili" atamasi "konversatsiya tahlili" atamasiga nisbatan ustun qo'yilishi lozim, chunki suhbat tahlili nafaqat lingvistik jihatlarni, balki tematik va faoliyatga oid omillarni ham, shuningdek, etnografik ma'lumotlarni ham qamrab oladi. Etnografik bilimlarni egallash asosan ishtirokchi kuzatuv orqali amalga oshiriladi. Ushbu usulda tadqiqotchi subyektlar bilan uzoq muddatli aloqa o'rnatib, ularning kundalik hayotida ma'lum darajada ishtirok etadi va shu orqali ularning til odatlari hamda kommunikativ munosabat shakllari haqida chuqurroq tasavvur hosil qiladi [3].

Suhbat davomida yuzaga kelgan erkin va tabiiy muhit hamda muayyan mavzulardagi muloqotlar yoshlarning asosan o'zaro guruh ichidagi interaksionalariga e'tibor qaratishlariga imkon yaratadi. Bu esa ijtimoiy vaziyatlarda yuzaga keladigan maxsus nutqiy va xulq-atvoriy odatlarni kuzatish imkoniyatini beradi. Etnolektlar, asosan, ikki muhim nuqtai nazardan tadqiq qilingan: standart tilning yangi variatsiyalari sifatida hamda "nutq sohiblari o'zaro interaktiv va ijtimoiy vazifalarni hal qilishda qo'llaydigan ijtimoiy uslublar" sifatida [4]. Variatsion lingvistika tadqiqotlari yangi til shakllarini tavsiflash va ularni standart til bilan taqqoslash bilan shug'ullanadi. Ular ushbu etnolektlarning dialekt, o'rganilayotgan til shakli yoki yoshlar uslubi sifatida qaralishi mumkinmi, degan savolga javob izlaydi. Masalan, Wiese va Auer kabi tilshunoslar etnolektlarni nemis tilining mustaqil variatsiyalari sifatida ko'rib chiqadilar. Soziostilistik va interaktiv tadqiqotlar esa etnolektlar ma'lum bir guruhga mansublikni yoki aksincha, undan ajralib chiqishni ifodalovchi vosita ekanligini ta'kidlaydi. Shunday qilib, etnolektlar identifikatsiya ramzi sifatida qaralishi mumkin [4].

Natijalar va muhokama. Til va muloqotning yangi shakllarining shakllanishi, xususan, nemis tilida so'zlashuvchi ko'pchilik va muhojir tillarida so'zlashuvchilar o'rtasidagi aloqa natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlar masalasini Volker Hinnenkamp ham o'rganadi. U allaqachon 1980-yillarning oxirida etniklik va etnik tasniflash masalalariga murojaat qilib, etniklik, shuningdek, madaniyat, millat va din kabi parametrlar muloqot orqali ishlab chiqilishini va asosan til vositasida shakllantirilishini ta'kidlaydi [5].

Nemis va turk tillarining etnik tasnifi va stilizatsiyasiga doir tadqiqotlarida Hinnenkamp nemis tili taraqqiyot va integratsiya bilan bog'liq bo'lib, nufuzli til hisoblanishini, turk tilining esa nisbatan pastroq maqomga ega ekanligini qayd etadi. Biroq, keyinchalik Hinnenkamp yozib olingan suhbatlarni tahlil qilib, turk tili ayniqsa etnik jihatdan aralash yoshlik submadaniyatlarida nufuzli tilga aylanganini va ko'p tillilikning turli shakllarida namoyon bo'lishini aniqlaydi [6]. Til, madaniyat va identifikatsiyaning nisbatan yangi shakllarining rivojlanishi hamda til va madaniy tizimlarning o'zaro aralashuvi Hinnenkamp [7] tomonidan gibrilistik diskursi (Hybriditätsdiskurs) deb ataladi. Ayniqsa, yoshlar guruhi ularga mavjud bo'lgan lingvistik resurslardan foydalanib, o'zlariga xos til shakllarini va shunday qilib, o'z kommunikativ uslublarini yaratadilar. Bu jarayonda kod almashtirish (Code-Switching) shakllaridan tashqari, Hinnenkamp tomonidan o'rganilgan yoshlar "aralash nutq" (Gemischtsprechen) deb ataydigan uslub ham rivojlanadi. Ushbu nutq shaklida nafaqat gap darajasida, balki ayrim so'zlarning ichida ham til bir necha marta almashtiriladi. Yoshlarning ushbu variatsiyani o'z nomi bilan atashi va boshqa nutq shakllaridan ajratib ko'rsatishi ularning o'ziga xos o'tish davri ijtimoiy identifikatsiyasini ifodalashga xizmat qiladi.

Hinnenkamp bu gibridolektal We-Codening o'z nomi bilan aytilishi va ishlatilishini identifikatsiya harakati (act of identity) sifatida baholaydi. Bu jarayon yoshlar guruhi ichida o'zini interaktiv ravishda joylashtirish va identifikatsiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Etnik chegaralar, rollar va identifikatsiyalar til aralashmalari orqali o'yinqaroq tarzda almashinadi, stilizatsiya qilinadi va "harakatning ko'ngilochar resursi" sifatida xizmat qiladi [8]. Peter Auer va Inci Dirim asosan chet elliklar istiqomat qiladigan Gamburging ayrim hududlarida nemis ko'pchilik jamiyatiga mansub shaxslar yoki boshqa migrant guruhlarga mansub kishilar tomonidan migrant tillarining o'zlashtirilishi kabi kutilmagan hodisalarni kuzatgan [9]. Ayniqsa, turk tili ushbu hududlardagi ko'plab yoshlar orasida, hatto turk millatiga mansub tengdoshlari bilan bevosita aloqasi bo'lmagan hollarda ham, muayyan ikkinchi standart til sifatida shakllangan. Ushbu tilni o'zlashtirishning o'z-o'zidan yuzaga kelishi turli savollarni keltirib chiqaradi va turk tili hech bo'lmaganda muayyan ijtimoiy guruhlar orasida obro'siz til sifatida qaralmasligini ko'rsatadi. Auer va Dirimning fikricha, turk tilidan foydalanishning bunday shakllari aynan yoshlarning ijtimoiy muhiti va ko'p etnik tarkibga ega jamiyatda birga yashash tajribasi bilan bog'liq. Nemis-turk aralash kodidan va turkcha terminlardan foydalanish yoshlar orasida amaliy ko'p tililikni, umumiy hayotiy bog'liqlikni va guruhga mansublikni anglatadi [9]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, aynan turkcha murojaat shakllari va diskurs markerlari yoshlar tilida identifikatsion va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi va turk tilining ijtimoiy-simvolik qiymatini namoyon qiladi. Bu yoshlarning kundalik muloqot shakli bo'lganligi sababli, bu holat etnik chegaralarni kesib o'tish yoki Language Crossing hodisasi emas, balki nemis yoshlariga birlamchi etnolektning bevosita ta'siri sifatida qaratiladi.

Turk millatiga mansub bo'lmagan yoshlar tomonidan qo'llanilgan turkcha formulalar va etnolektal belgilar bilingval spikerlar tomonidan ishlatiladigan kod-almashish (Code-Switching) va kod-aralashish (Code-Mixing) shakllariga mos keladi. Auerning fikriga ko'ra, kod-almashish ikki til yoki variantning ketma-ket ishlatilishini anglatadi, kod-aralashish esa, aksincha, ikki til orasida uzluksiz o'tish bo'lib, u ko'pincha diskurs markerlari yoki undov so'zlar shaklida yuzaga chiqadi [10]. Bundan tashqari, Auer kod-almashishning ikki shaklini farqlaydi: Diskursga asoslangan kod-almashish – bu kontekstualizatsiya belgisi bo'lib, u suhbat ishtirokchilari va muloqot sharoitini belgilaydi yoki qayta shakllantiradi. Ishtirokchilarga asoslangan kod-almashish – bu suhbat ishtirokchilarining lingvistik kompetensiyalari va tilga bo'lgan afzalliklari haqida ma'lumot beradi.

Hamburgning etnik jihatdan aralash yoshlar guruhida sodir bo'layotgan til hodisalari bilingval jamoalarda kuzatiladigan til hodisalari bilan o'xshashliklarga ega: turli tillar yoki ularning variantlari turli vazifalar bilan va turli shakllarda ishlatiladi, biroq bu jarayonda etnik chegaralar buzilmaydi. Auer va Dirim turk tilining ushbu qo'llanilishini act of identity (identifikatsiya akti) sifatida tavsiflaydilar. Bu til vositasida spikerlarning ramziy qo'shilish yoki ajralib turish ehtiyojlari ifoda etiladi. Turk tili nemis va turk bo'lmagan yoshlar tomonidan o'zlashtiriladi va qo'llaniladi, bu esa ijtimoiy va ramziy ahamiyatga ega bo'lgan identifikatsiya aktlarini amalga oshirishga xizmat qiladi va oddiygina muloqot uchun ham ishlatilishi mumkin. Bu tilni o'zlashtirishning sababi turk tili va madaniyatiga to'liq

identifikatsiya qilish emas, balki muayyan madaniy va ijtimoiy jihatlariga mansublik hamda turk tilining yirik shahar yoshlari va submadaniy getto madaniyatining bir qismi sifatidagi ramziy ahamiyatidir. Turkcha iboralar va nutq formulalaridan foydalanishning qaysi maqsadda amalga oshirilishidan qat'i nazar, bu jarayon yoshlarning ijtimoiy uslubining bir qismiga aylanadi va ularning o'z-o'zini ifodalash akti sifatida xizmat qiladi. Auer va Dirimning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, turk tili ayniqsa etnik jihatdan aralash tarmoqlarda, norasmiy muhitda va turli etnik kelib chiqishga ega yoshlar orasida o'ziga xos ovozga aylanishi mumkin. Bu til o'z jamoasi ichida o'ziga ishonch bilan ishlatiladi, yuqori baholanadi va shu bilan birga submadaniy nufuz kasb etadi.

Germaniyada boshlang'ich maktab o'quvchilari etnolektal va standart tilga yaqin shakllarni farqlashni boshlaydilar hamda o'z o'qituvchilari va sinfdoshlari tomonidan bildirilgan munosabatlar orqali qaysi shakldan foydalanish qanday ta'sir ko'rsatishini tushunib yetadilar. Shahar hududidagi birinchi sinf o'quvchilari etnolektal shakllardan o'zlarini "sovuq gangster" sifatida namoyon qilish (o'z-imidjini shakllantirish) maqsadida ham foydalanadilar. Kelib chiqishi turk bo'lgan o'g'il bolalar o'z tashqi qiyofalari (katta o'Ichamdagi jinsi shimlar, orqaga taralgan va jeldan foydalanilgan soch turmagi), yurish-turishlari (oyoqni keng yoygan holda yurish, bo'shashgan, loqayd holatda harakat qilish, haddan tashqari harakatli va tajovuzkor imo-ishoralar) hamda tillari (etnolektal shakllardan foydalanish, standart tilga yaqin shakllarni rad etish) orqali ommaviy axborot vositalarida o'zlariga namuna sifatida olgan obrazlarga, ayniqsa, Bushido kabi rep ijrochilariga taqlid qiladilar. Nemis tilidagi zamonaviy rep qo'shiqlari hamda an'anaviy turk xalq qo'shig'idan foydalanish orqali yoshlar o'z ijodiy salohiyatlarini namoyish etadilar va shu orqali o'z guruhiga xos uslub shakllantiradilar. Bu o'ziga xos ijtimoiy va madaniy ajratish jarayoni faqat nemis yoki uchinchi etnik guruh vakillariga emas, balki mahalliy muhitdagi yoshlar va hatto o'z etnik guruhining vakillariga, ayniqsa, birinchi avlod mehnat muhojirlari (Gastarbeiter)ga ham qaratilgan. Shu ma'noda, polifoniya hodisasi, ya'ni, begona ovozlarni istehzoli kod almashtirish yoki ikkiyoqlama (varidireksional) nutq texnikalari orqali o'yin tariqasida iqtibos keltirish jarayoni alohida ajralib turadi. Turli xil kommunikatsiya shakllari, jumladan, til variantlari va tillardan foydalanish, ritual haqoratlar, ommaviy axborot vositalari orqali o'z ifodasini topish va guruhlarini tasniflash kabi usullar ijtimoiy-ramziy va uslubiy elementlar sifatida xizmat qiladi. Yoshlar ana shu usullar orqali o'zlarini muayyan submadaniyatga mansubligini ko'rsatadilar hamda begonalarga nisbatan ajratish jarayonini namoyon qilib, o'z identifikatsiyasini interaktiv shakllantiradilar.

Xulosa. Etnolektal xususiyatlarning fonetik-prosodik, morfosintaktik va leksik jihatdan qo'llanilishi nuqtai nazaridan, ilmiy adabiyotda tasvirlangan "turkcha slang", "Kanak Sprak" yoki "mahalla tili" deb nomlangan til o'ziga xosliklar kuzatildi. Bu borada ayniqsa ba'zi gap bo'laklarining, asosan artikllar, predloglar va olmoshlarning tushib qolishi va umuman, juda qisqa va minimalistik so'zlashuv uslubi e'tiborga molikdir. Ba'zi minimal konstruksiyalar va noodatiy shakllar barqarorlashgan bo'lib, yoshlarning kundalik hayotiga oid ma'lum bir atamalar bilan doimiy ravishda uchrasa-da, ba'zilari esa faqat vaqti-vaqti bilan ishlatiladi. Ayrim etnolektal xususiyatlarning ma'lum bir ijtimoiy belgi sifatida ongli ravishda qo'llanilishining aniq dalillari yo'qligi yoki ularning grammatik va idiomatik noaniqlik

belgisi ekanligi noma'lumligicha qolmoqda. Masalan, akkusativ o'rniga dativ shakllarning ishlatilishi va artikllar bilan predloglarning birikmasining yo'qligi og'zaki nutqda ancha tez-tez uchrasa ham, bu grammatik bilimsizlik belgisi sifatida talqin qilinishi mumkin. Ayniqsa, kelishik va rod kategoriyalaridagi o'zgarishlar shu qadar "notabiiy" va "g'alati" eshitiladiki, ularning ona tilidagi interferensiya natijasi ekanligi haqida savol tug'iladi. Bir ijtimoiy guruhga mansublik va o'z uslubiga bo'lgan moyillik ayniqsa muayyan murojaat shakllari va guruh atamalarining qo'llanilishida yaqqol namoyon bo'ladi, bu atamalar asosan Amerika hip-hop sahnasidan olingan. Hip-hop madaniyati global fenomen bo'lib, til bilan ijodiy ishlash va ijtimoiy aloqalar uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Etnolektal xususiyatlarni muayyan etnik guruhlariga bog'lash yoki ularni faqat ona tilidan

maqsad tilga bo'ladigan interferensiyalar va nazoratsiz til o'zlashtirish natijasi sifatida izohlash yetarli bo'lmaydi. Yoshlar o'z etnik kelib chiqishidan qat'i nazar, mavjud media resurslaridan foydalanadilar va ularni o'z guruh ichidagi muloqotga turlicha yo'sinda integratsiya qiladilar, bu esa yoshlar tiliga xos bo'lgan brikolaj (turli resurslarni ijodiy tarzda aralashtirish) tamoyiliga mos keladi. Fonetik-prosodik, morfosintaktik va leksik xususiyatlarning o'zgaruvchanligi esa shuni ko'rsatadiki, bu yoshlar nemis tilining qoidalarini odatda yaxshi bilishadi va ushbu til variantidan faqat muayyan holatlarda foydalanadilar. Bu ularning yagona nutq shakli emas, balki ular bir necha xil tilda yoki tildagi variantlarda muloqot qila olish qobiliyatiga ega ekanliklarini bildiradi.

ADABIYOTLAR

1. Schlobinski, Peter (1996): Empirische Sprachwissenschaft. Opladen: Westdeutscher Verlag, 46-48.
2. Labov, William (1972): Sociolinguistic Patterns. Philadelphia: UPP, 209.
3. Deppermann, Arnulf (2001): Gespräche analysieren. Eine Einführung. Opladen: Leske und Budrich, 10-22.
4. Keim, Inken (2002): Die Verwendung von Formen der Mannheimer Stadtsprache in einer jugendlichen Migrantinnengruppe. In: Bateman, John/ Wildgen, Wolfgang (Hrsg.): Sprachbewusstheit im schulischen und sozialen Kontext. Frankfurt a.M.: Lang, 117-137.
5. Hinnenkamp, Volker (1989): Die Stilisierung von Ethnizität. In: Hinnenkamp, Volker/Selting, Margret (Hrsg.): Stil und Stilisierung. Arbeiten zur interpretativen Soziolinguistik. Tübingen: Niemeyer, 253-291.
6. Hinnenkamp, Volker (1998): Mehrsprachigkeit in Deutschland und deutsche Mehrsprachigkeit. Szenarien einer migrationsbedingten Nischenkultur der Mehrsprachigkeit. In: Kämper, Heidrun/Schmidt, Hartmut (Hrsg.): Das 20. Jahrhundert: Sprachgeschichte – Zeitgeschichte. Berlin: de Gruyter, 137-162.
7. Hinnenkamp, Volker (2005): Einleitung. In: Hinnenkamp, Volker/Meng, Katharina (Hrsg.): Sprachgrenzen überspringen. Sprachliche Hybridität und polykulturelles Selbstverständnis. Tübingen: Narr, 7-16.
8. Hinnenkamp, Volker (2000): „Gemischt sprechen“ von Migrantenjugend lichen als Ausdruck ihrer Identität. In: Der Deutschunterricht 5, 96-107.